Asarning voqealar rivoji va ijtimoiy muhitini ifodalashda inson ruhiyati muhim rol o'ynaydi. Chunki qahramonlar turli xil xarakter, xususiyat, psixologiyaga ega inson sifatida tasvirlanadi. Ularning har biri boshqa dunyoda yashaydi, boshqacha fikrlaydi. Shu orqali muallif qissada jamiyatdagi turli toifadagi odamlarni namoyish qilishga uringan. Ahror tabiatan sodda va ishonuvchan qishloq yigiti. Shuning uchun u giyohvandfurushlarga giyohvand moddani yetkazib berishda bilmasdan qo'shilgan. Shuningdek, Latofatning ko'knori haqidagi gaplariga chindan ishongan Ahror haqida asarda shunday ta'rif beriladi: "Shu tobda Latofat koknor emas, Ahrorjonning jonini so'rasa ham u ikkilanmas edi..." [2;9-b.]. Latofat chiroyli va xushchaqchaq ayol sifatida gavdalanadi. U ko'rinishidan zamonaviy, yevropacha uslubda yashaydigan ayoldek ko'rinsa-da, ichki ruhiyati murakkab, bardoshli va ruhiy ziddiyatlarga to'la ayol qahramon. Asar davomida uni salbiy xususiyatga ega qahramon deb tasavvur qilish mumkin. Ammo Latofatning Ahrorga yozgan oxirgi maktubida uning qanday yaxshi xususiyatlari borligini bilish mumkin. Asarda ijobiy qahramonlar bilan birga salbiy qahramonlar ham ishtirok etgan. Ulardan biri Yoqub, u giyohvand savdosining boshliqlaridan biri. Yoqub pul, chiroyli ayollarga o'ch bo'lsa-da, bir so'zli qahramon. Uning ayollarga bo'lgan hirsi yuqori bo'lganligi tufayli latofatning hayotiga salbiy ta'sir qildi. Yoqubning jinoyat yo'lidagi odamlari ko'p bo'lgan, bu uning jamiyat hayotida chuqur ildiz otganligini bildiradi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali oddiy insonlarning hayotiga qanday yomon ta'sir qilishini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Bundan tashqari, ijtimoiy muhit inson ruhiyatiga ta'sir qiladi, sababi hech kim azaldan yomon bo'lishni, noto'ri yo'lga kirib xato qilishni xohlamaydi, aksincha, atrofdagilar unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tahlil va natijalar. Asar yakuniga kelib, barcha muammolar o'z yechimini topadi. Ahror Latofatni o'ldirmagani isbotlanib, haqiqiy aybdor aniqlanadi. Chunki Latofatni Ahror o'ldirmagan edi. Giyohvandlik savdosiga qo'shilgan ko'pchilik o'z joniga qasd qiladi yoki o'ldirib ketiladi. Latofatning yagona o'gli Shuhrat Ahrorda qoladi. Bu bilan muallif haqiqat doim g'alaba qozonishini, noto'gri yo'lning oxiri fojia ekanini aytmoqchi bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muallif "Latofat do'konidagi qatl" qissasi orqali jamiyatdagi ma'naviy inqirozning inson hayotiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu jarayonlarda inson ruhiy olami va ma'naviy qarashlari muhim bo'lib, uning hayotdagi tanlovlariga bevosita tasir ko'rsatadi. Qissa qadriyatlarning susayishi, pul, davlatga ruju qo'yish va axloqiy buzilishlarning fojiali oqibatlarini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Toshkent, 2020.
(2). Ibodinov A. Latofat do'konidagi qatl. Toshkent, "Sharq", 2001.

Allaberganova Umida Mammatovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Fakultetlararo chet tillar" kafedrasi o'qituvchisi)

"TRISTAN VA IZOLDA" HAMDA "TOHIR VA ZUHRA" DOSTONLARIDA O'RTA ASR ROMANTIKASI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada G'arb va Sharq o'rta asr adabiyotining ikkita nodir yodgorligi – "Tristan va Izolda" hamda "Tohir va Zuhra" dostonlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikkala asarning sujet qurilishi, obrazlar tizimi, ziddiyat tabiati va badiiy-falsafiy xususiyatlaridagi umumiylik va o'ziga xosliklar o'rganiladi. Ikkala dostonda ham oshiqlarning taqiqlangan muhabbati, ijtimoiy to'siqlar va sadoqat masalalari markaziy o'rin egallashi, biroq bu mavzularning yechimi G'arb va Sharq madaniyati, xususan, G'arbda kurtoaziya muhabbati va Sharqda tasavvufiy-falsafiy qarashlar doirasida turlicha talqin etilishi ko'rsatib beriladi. Maqolada "Tristan va Izolda"dagi taqdiriy sevgi-jo'shqinlik ("tragik fatalizm") va "Tohir va Zuhra"dagi sadoqat va adolat uchun kurash ("ijtimoiy va axloqiy drama") aspektlari qiyoslanadi.*

Kalit so'zlar: *o'rta asr romantikasi, 'Tristan va Izolda", "Tohir va Zuhra", qiyosiy adabiyotshunoslik, doston, kurtoaziya muhabbati, folklor, xalq dostonlari, badiiy tahlil.*

Аллаберганова Умида Мамматовна (преподаватель, Ургенческий государственный университет имени Абу Райхона Беруни, факультет иностранной философии, межфакультетское отделение иностранных языков)

"ТРИСТАН И ИЗОЛЬДА" И "ТОХИР И ЗУХРА": СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕДНЕВЕКОВОЙ РОМАНТИКИ

Аннотация. *В данной статье проводится сопоставительный анализ двух выдающихся памятников западной и восточной средневековой литературы – эпосов "Тристан и Изольда" и "Тохир и Зухра". Исследуются общие черты и специфические особенности сюжетостроения, системы*

образов, природы конфликта и художественно-философских аспектов обоих произведений. Показано, что в обоих эпосах центральное место занимает тема запретной любви, социальных преград и верности, однако трактовка этих мотивов различается в силу культурных особенностей: на Западе – в контексте куртуазной любви, на Востоке – в рамках суфийско-философских воззрений. В статье сопоставляются аспекты фатальной страсти ("трагический фатализм") в "Тристане и Изольде" и борьбы за верность и справедливость ("социальная и нравственная драма") в "Тохире и Зухре".

Ключевые слова: *средневековая романтика, "Тристан и Изольда", "Тохир и Зухра", сравнительное литературоведение, эпос, куртуазная любовь, фольклор, народные дастаны, художественный анализ.*

Allaberganova Umida Mammatovna (Teacher, Urgench State University named after Abu Raykhon Beruni. Faculty of Foreign Philology, Interfaculty Foreign languages Department)

"TRISTAN AND ISOLDE" AND "TOHIR AND ZUHRA": A COMPARATIVE ANALYSIS OF MEDIEVAL ROMANCE

Annotation. *This article provides a comparative analysis of two outstanding monuments of Western and Eastern medieval literature – the epics "Tristan and Isolde" and "Tohir and Zuhra". It examines the common features and specific characteristics of plot construction, character systems, the nature of conflict, and the artistic and philosophical aspects of both works. It is shown that both epics centrally feature the theme of forbidden love, social barriers, and fidelity; however, the interpretation of these motifs differs due to cultural contexts: in the West, within the framework of courtly love, and in the East, within Sufi-philosophical perspectives. The article compares aspects of fatal passion ("tragic fatalism") in "Tristan and Isolde" with the struggle for fidelity and justice ("social and moral drama") in "Tohir and Zuhra".*

Keywords: *medieval romance, Tristan and Isolde, Tohir and Zuhra, comparative literature, epic, courtly love, folklore, folk dastans, literary analysis.*

Kirish (Introduction). O'rta asrlar adabiyoti G'arb va Sharqda o'ziga xos tarzda rivojlanib, insonning ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari va ijtimoiy munosabatlari haqida chuqur badiiy talqinlarni yaratdi. Bu davrning eng yorqin namunalaridan biri bu sevgi-muhabbat mavzusiga bag'ishlangan romantik dostonlardir. G'arbda "Tristan va Izolda" afsonasi[1] [2.5.7-b.] Sharqda, xususan, O'zbekiston xalq og'zaki ijodida "Tohir va Zuhra" dostoni[2] [1;3.8-b.] o'zining ta'sirchanligi va falsafiy chuqurligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada mazkur ikki dostonni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, o'rta asr romantikasining madaniy xususiyatlarini yoritish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). "Tristan va Izolda" haqidagi dostonning ilk yozma manbalari XII asrga oid bo'lib, uning turli versiyalari (Thomas Britan, Béroul va boshqalar) adabiyotshunoslar tomonidan keng o'rganilgan[3] [2;9-b.]. Ushbu asar G'arb madaniyatida kurtoaziya muhabbati va ritsarlik ideallarining eng muhim ifodalaridan biri hisoblanadi[4] [12-b.]. "Tohir va Zuhra" dostoni esa turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek, turkman, ozarbayjon va boshqa xalqlar folklorida keng tarqalgan bo'lib, uning ilk adabiy ishlovlari XVII–XVIII asrlarda Sayyodiy tomonidan berilgan [5] [1;3.8-b.]. "Tohir va Zuhra" sujeti o'ziga xos ijtimoiy-axloqiy mazmun kasb etib, xalqning adolat va sadoqat haqidagi orzularini aks ettiradi[6] [1;11-b.]. Ikkala asar ham o'rta asr romantikasining namunasi sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tortgan, biroq ularni qiyosiy jihatdan o'rganish yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolada qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy va struktural tahlil usullari qo'llanildi. Asosiy e'tibor ikkala dostondagi syujet, obrazlar tizimi (Tristan-Izolda va Tohir-Zuhra), ziddiyat (konflikt) turlari, hamda asarlardagi muhabbat va sadoqat falsafasini taqqoslashga qaratildi. Tadqiqotda dostonlarning xalq og'zaki variantlari[7] [3;6.8-b.] hamda ularga berilgan adabiy ishlovlar[8] [1;2.9-b.] tayanch manba sifatida xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Sujet va asosiy ziddiyat. Ikkala dostonning markazida oshiqlarning taqiqlangan muhabbati va uning fojiali oqibatlari turadi. "Tristan va Izolda"da ziddiyat sevgi,

---

[1] Tristan va Iseult // Vikipediya [2-b.].
[2] Tohir va Zuhra. Vikipediya [3-b.].
[3] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[4] Dzieje Tristana i Izoldy. Zintegrowana Platforma Edukacyjna [12-b.].
[5] Саиеодий. Тохир ва Зухра. Тошкент, 1960 [1-b.].
[6] Молланепес. Зохре – Тахыр. Ашгабат, 1959 [1-b.].
[7] Tohir va Zuhra. Vikipediya [3-b.].
[8] Короглы Х. Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].

burch (amakisiga bo‘lgan sadoqat) va ijtimoiy me’yorlar (zino) o‘rtasida vujudga keladi. Tristan va Izoldaning sevgisi sehrli iksir tufayli avj oladi, bu esa ularning taqdirini oldindan belgilab qo‘yadi[1] [2;10-b.]. “Tohir va Zuhra”da esa ziddiyat, asosan, ijtimoiy tabiatga ega: Tohir va Zuhraning sevgisiga podshoh (Zuhraning otasi) va ijtimoiy tengsizlik to‘sqinlik qiladi[2] [1;8-b.]. Bu yerda sevgi adolatsizlikka qarshi kurash timsoliga aylanadi.

Muhabbat talqini. G‘arb dostoni kurtoaziya muhabbati kanonlarida yaratilgan bo‘lib, bu yerda sevgi qahramonlik, fidoyilik va ba’zan diniy-axloqiy qarama-qarshiliklar bilan uyg‘unlashadi[3] [9.12-b.]. Tristan va Izoldaning his-tuyg‘ulari “o‘limga olib boruvchi ehtiros” (amour-passion) sifatida tasvirlanadi. Sharqda esa “Tohir va Zuhra” sevgisi ko‘proq sadoqat va poklik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. U tasavvufiy-falsafiy qarashlar bilan uyg‘unlashib, sevgiliga bo‘lgan muhabbat orqali yuksak ma’naviy fazilatlarga erishish g‘oyasini ilgari suradi[4] [3;11-b.].

Obrazlar xarakteristikasi. Tristan – jasur ritsar, sodiq do‘st, lekin ichki qarama-qarshiliklarga to‘la obraz[5] [2-b.]. Izold –go‘zallik va ehtiros timsoli. Ikkalasi ham taqdir qurboni. Tohir va Zuhra obrazlari esa ijtimoiy zulmga qarshi kurashchi, sodiq va matonatli qahramonlar sifatida gavdalanadi[6] [8-b.]. Ularning sevgisi pokiza va daxisiz bo‘lib, asarda ijtimoiy adolat uchun kurash g‘oyasi bilan chambarchas bog‘langan.

“Tristan va Izolda”da sehrli muhabbat iksiri, oq va qora yelkanlar, qilich va qalqon kabi predmetlar ramziy ma’no kasb etadi. Iksir taqdirning oldindan belgilab qo‘yilganligini, yelkanlar ranglari esa umid va umidsizlik, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashni ifodalaydi. Masalan, Tristanning so‘nggi lahzada qora yelkanni ko‘rishi uning hayotdan uzilishiga sabab bo‘ladi. Bu sujetda taqdirga qarshi kurashning befoyda ekanligi ramziy aks etgan. “Tohir va Zuhra”da esa bulbul va gul, oy va quyosh kabi Sharq she’riyatida an’anaviy bo‘lgan obrazlar sevgi va sadoqatni ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, Tohirning majnunlik darajasiga yetgan muhabbati, uning sahroda yolg‘iz qolishi va tabiat bilan uyg‘unlashgan tasvirlari orqali ramziy ma’no chuqurlashadi. Zuhraning intizorlikda o‘tgan yillari va uning pokligi ramziy jihatdan Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” an’analari bilan bog‘lanib, muhabbatning ma’naviy yuksaklik timsoliga aylanadi. Tabiat tasvirlari va ularning semantik yuki. G‘arb dostoni tabiati ko‘proq ritsarlik romantikasi ruhida – o‘rmonlar, qal’alar, jang maydonlari va dengiz manzaralari bilan boyitilgan. Tabiat qahramonlarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi: quyosh botishi, bo‘ron va sokin dengiz obrazlari orqali qahramonlarning kayfiyati va taqdiri o‘quvchiga yetkaziladi. “Tohir va Zuhra”da esa tabiat Sharqona lirizm – bog‘lar, buloqlar, gullar va oy yorug‘ligi bilan ifodalanadi. Bu tasvirlar nafaqat muhitni yaratadi, balki qahramonlarning hissiy holatiga mos ravishda o‘zgaradi. Tohirning zindondagi tasvirlari zulmat va qorong‘ulik, Zuhraning baxtli damlari esa yorug‘lik va bahor bilan uyg‘unlashgan. Bunday tasvirlar Sharq adabiyotining estetik tamoyillariga xos bo‘lib, muhabbatni ilohiylashtirish va tabiat bilan birlashtirish orqali yuksak ma’naviy tuyg‘ularni aks ettiradi.

Badiiy xususiyatlar. “Tristan va Izolda”da sehrgarlik, ramziy tafsilotlar (masalan, oq va qora yelkanlar) va ritsarlik urf-odatlariga oid tasvirlar muhim o‘rin egallaydi[7] [2;9-b.). “Tohir va Zuhra”da esa xalqona iboralar, afsonaviy motivlar va lirik chekinishlar ko‘proq uchraydi[8] [1;6.8-b.].

Sharqda, xususan, o‘zbek xalq dostonida islom dini va tasavvufiy qarashlar, shuningdek, xalqchil orzular – adolat, tenglik va poklik – muhabbatni ijtimoiy kurash va ma’naviy kamolot timsoliga aylantirgan. Aynan shu madaniy xususiyatlar ikkala dostonning badiiy-falsafiy yechimlari orasidagi tub farqni belgilab beradi. G‘arbda muhabbat taqdir va ehtirosning qurboni bo‘lsa, Sharqda muhabbat adolat va ma’naviy poklikni himoya qiluvchi kuchga aylanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, “Tristan va Izolda” hamda “Tohir va Zuhra” dostonlari o‘rta asr romantikasining ikki xil – G‘arb va Sharq – modelini ifodalaydi. Ikkala asar ham insoniyatning abadiy qadriyatlari – muhabbat, sadoqat va fidoyilikni madh etadi. Biroq, ulardagi ziddiyatlar va ularning yechimi madaniy-falsafiy tafovutlarni ko‘rsatadi: G‘arbda taqdir va ehtiros dramasi bo‘lsa, Sharqda ijtimoiy-adolat va ma’naviy poklik dramasi markazda turadi. Ushbu qiyosiy tahlil o‘rta asr adabiy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

---

[1] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[2] Короглы Х. Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].
[3] Dzieje Tristana i Izoldy. Zintegrowana Platforma Edukacyjna [12-b.].
[4] Kitobiy Dostonlar. Qomus Info [11-b.].
[5] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[6] Ишанбабаева Ш.К. (Dissertatsiya) [8-b.)
[7] Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
[8] Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):
(1). Короглы Х. Тахир и Зохра. Краткая литературная энциклопедия [1-b.].
(2). Tristan va Iseult. Vikipediya [2-b.].
(3). Tohir va Zuhra. Vikipediya [3-b.].
(4). O‘zbek xalq ijodi. Vikipediya [6-b.].
(5). Kitobiy Dostonlar. Qomus Info [11-b.].
(6). Ишанбабаева Ш.К. (Dissertatsiya) [8-b.].
(7). Bédier J. Romanas apie Tristaną ir Izoldą [9-b.].
(8). Dzieje Tristana i Izoldy. Zintegrowana Platforma Edukacyjna [12-b.].
(9). Молланепес. Зохре – Тахыр. Ашгабат, 1959 [1-b.].
(10). Саиеодий. Тохир ва Зухра. Тошкент, 1960 [1-b.].

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi (O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “To‘g‘on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi Jamoatchilik bilan aloqalar” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi; E-mail: dfazliddinovna@mail.ru; ORCID: 0009-0003-0010-6796)

RAQAMLI EKOLOGIK KOMMUNIKATSIYADA ZAMONAVIY PR MODELLARI VA PSIXO-SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy davlat ekologik boshqaruvi va raqamli jamoatchilik bilan aloqalar (PR) tizimida klassik sotsiologik, psixologik va kommunikativ nazariyalarning integratsiyalashuv qonuniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida J.Grunig va T.Huntning ikki tomonlama simmetrik muloqot modeli, R.Thalerning “Turtki berish” konsepsiyasi hamda L.Festingerning “Kognitiv disonans” nazariyalari o‘zbek ekomedia makonidagi davlat organlari faoliyati misolida empirik tahlil qilingan. Maqolada raqamli platformalardagi byurokratik kontent anomal konsentratsiyasining aholi ongida keltirib chiqaradigan axborot disonansi hamda uni bartaraf etishda reaktiv transmedia va algoritmik PR-boshqaruv mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ikki tomonlama simmetrik model, kognitiv disonans, turtki berish nazariyasi, raqamli PR, ekologik diskurs, axborot asimmetriyasi, transmedia hikoyachilik, O‘rmon agentligi.*

Джураева Дильноза Фазлиддиновна (Самостоятельный соискатель кафедры по связям с общественностью имени Тугана и Кудрата Эрназаровых, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана)

ИНТЕГРАЦИЯ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ PR И ПСИХО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В данной статье исследуются закономерности интеграции классических социологических, психологических и коммуникативных теорий в систему современного государственного экологического управления и цифровых связей с общественностью (PR). В рамках исследования на примере деятельности госорганов в экомедиапространстве Узбекистана эмпирически проанализированы двусторонняя симметричная модель коммуникации Дж.Грунига и Т.Ханта, концепция «Подталкивания» (Nudge) Р.Талера и теория «Когнитивного диссонанса» Л.Фестингера. Научно обоснован информационный диссонанс, вызываемый аномальной концентрацией бюрократического контента на цифровых платформах в сознании населения, и разработаны механизмы реактивного трансмедиа и алгоритмического PR-управления для его устранения.*

Ключевые слова: *двусторонняя симметричная модель, когнитивный диссонанс, теория подталкивания, цифровой PR, экологический дискурс, информационная асимметрия, трансмедиа сторителлинг, Лесное агентство.*

Djurayeva Dilnoza Fazliddin qizi (Independent Researcher at the Department of Public Relations named after Tugan and Kudrat Ernazarov,University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan)

INTEGRATION OF MODERN PR MODELS AND PSYCHO-SOCIOLOGICAL THEORIES IN DIGITAL ECOLOGICAL COMMUNICATION

Annotation. *This article explores the laws governing the integration of classical sociological, psychological, and communicative theories within the framework of contemporary environmental public management and digital public relations (PR). Through the prism of state agencies’ performance in the Uzbek eco-media space, the study empirically analyzes J.Grunig and T.Hunt’s two-way symmetrical communication model, R.Thaler’s "Nudge" theory, and L.Festinger’s "Cognitive Dissonance" theory. The paper scientifically substantiates the informational dissonance triggered in the public consciousness by an anomalous concentration of bureaucratic content on digital platforms. Furthermore, it outlines reactive*